

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH

Lazokat Ismonchaeva

**Namangan viloyati Chust tumani Olmos qishlog'i 55-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
bolshang'ich sinf o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20609651>

Annotatsiya. Kutubxonalar ta'lim, madaniyat va jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bilimga kirish, madaniy merosni saqlash va aqliy o'sishni ta'minlash uchun bebaho manba hisoblanadi. Zamonaviy axborot jamiyatida ular har yoshdagi odamlarning ta'lim olishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga ko'maklashuvchi muhim institut bo'lib qolmoqda. Tarix tan olgan mutafakkirlardan Abu Rayxon Beruniy "Kitob – aql qayrog'i va bilim manbaidir." deb bejiz aytmagan. Ha, kitob tafakkur xazinasi, insoniyatning bebeho boyligi va ma'naviy komillik kaliti. Beruniyning ushbu ta'rifi esa, kitobning hayotimizdagi o'rni va kuchini yaqqol ochib beradi. Xalqimiz azaldan ilm-ma'rifatga intilgan, kitob o'qishga qattiq muhabbat qo'ygan. Yurtimizdan dong'i dunyoni tutgan ulug' olimlar va mutafakkirlarning ko'plab chiqqani ham bejiz emas. Biz shunday ilm-fan vatanining farzandlari ekanimizdan faxrlanishga haqli va o'tgan ajdodlarimizga hurmat-ehtiromlar ko'rsatishga burchlimiz. Bunga esa ular qoldirgan boy merosni puxta o'rganish, insonlarga foyda keltiruvchi barcha ilmlarni o'zlashtirish va uni farzandlarimizga ham o'rgatish orqali erishamiz.

Bugun mamlakatimizda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, infratuzilma va o'quv tizimi, kitobxonlik bilan bog'liq muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida, 2020-2025 yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Unga ko'ra, eng avvalo xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirildi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini o'rganish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish orqali kitob mahsulotlari ishlab chiqishni yo'lga qo'yildi, qolaversa, ta'lim muassasalari va hududiy kutubxonalarni markazlashgan kutubxona – "Yagona elektron kutubxona" loyihasi asosida birlashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rildi.

Prezidentning 15.01.2026 yildagi PQ-9-son qarorida aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va kitob mutolaasiga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish, yangi nashrlar va tarjimalarni chop etish, kutubxonalar va ta'lim tashkilotlarini professional va sohaga oid adabiyotlar bilan ta'minlashdan iborat. Shunga ko'ra, grantlar ajratish va yosh yozuvchilarning asarlarini nashr etish, shuningdek, bolalar adabiyoti sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy adabiyotning eng sara namunalarini o'zbek tiliga va milliy adabiyotni xorijiy tillarga tarjima qilishda nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlarining 50 foizi hamda mualliflik huquqi xarajatlarining 80 foizi qoplab beriladi.

Albatta, kitob o'qish inson uchun muvaffaqiyat va saodat eshiklarini ochuvchi kalitdir. Ilm izlash, kitob, gazeta va jurnallarni mutolaa qilish kishining dunyoqarashini kengaytiradi, o'ziga

xos lazzat bag'ishlaydi. O'zgalar oldida sohibining ilmiy, madaniy va axloqiy saviyasini yuqoriga ko'tarib qo'yadi. Zero, ko'p o'qigan, bilimdon insonning umuman o'qimagan yoki kam o'qiydiganlardan har sohada imkoniyat doirasi kengroq bo'ladi.

Kutubxonalar ta'lim, madaniyat va jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bilimga kirish, madaniy merosni saqlash va aqliy o'sishni ta'minlash uchun bebaho manba hisoblanadi. Zamonaviy axborot jamiyatida ular har yoshdagi odamlarning ta'lim olishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga ko'maklashuvchi muhim institut bo'lib qolmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev Anqarada Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimida shunday ta'kidladi: "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda". Hozirgi bosqichda ta'lim davlat siyosatidagi eng muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Uning mamlakat ravnaqida tutgan o'rnini tan olgan holda, O'zbekiston Respublikasi hukumati bu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda mamlakat ta'lim sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu yutuqlar tizimni modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini yaxshilash va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, shuningdek, davlatning barcha fuqarolari uchun ta'lim olish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. O'z navbatida, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini ommalashtirishga, aholida kitob o'qishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish va barcha uchun kutubxona va axborot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida asosiy maqsadlar sifatida yosh kitobsevarlar sonini besh millionga yetkazish, har yili 100 ta badiiy asar va bolalar hamda o'smirlar uchun 50 ta kitob yaratish, "O'zbek adabiyoti xazinasidan" ko'p jildlik va "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" 100 jildligini o'zbek tilida nashr etish hamda qariyb 40 millionga yaqin kitob fondini raqamlashtirish belgilangan. Bundan tashqari, har yili "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida kitobxonlik va intellektual o'yinlar yo'nalishida 5 ta quyidagi loyiha amalga oshirilmoqda: "Yosh kitobxon oila", "Mushoira", "Yosh kitobxon", "Zakovat" intellektual o'yini va "Ibrat chet tillari". Loyihalar yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, intellektual o'yinlar orqali mantiqiy fikrlash va bilim doiralarini kengaytirishga yordam beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida respublikada bolalar adabiyotini rivojlantirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalari sifatini oshirish uchun zarur ma'naviy, huquqiy va moddiy-texnik baza yaratildi. Mamlakat nashriyotlari jahon va o'zbek bolalar adabiyoti mualliflarining asarlarini nashr etishni ko'paytirdi. Kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida qabul qilingan bir qator hujjatlarga muvofiq, barcha hududlarda bolalar va o'smirlar o'rtasida adabiyotni ommalashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi to'rt yil ichida respublika nashriyot-poligrafiya va axborot-kutubxona muassasalari uchun yo'riqnoma bo'lib xizmat qilgan qator Prezident farmonlari va qarorlari hamda hukumat qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, o'quvchilarning kitob mutoalasiga qiziqishlarini aynan nimadan iboratligi va uni qanday yo'lga qo'yish mumkinligi to'g'risidagi masala metodik fan oldida dolzarblik kasb etadi, chunki 1-4 sinflarda o'qishga o'rgatish boshlang'ich kursini qayta qurishning istiqbollari, jumladan eski o'quv rejasida 123 o'quv soati ajratilgan sinfdan tashqari o'qish darslarining taqdiri ham uning yechimiga bog'liq bo'ldi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitob mutoalasiga qiziqishlarini shakllantirish va tarbiyalashning samarali texnologiyasi va metodikasini ishlab

chiqilib, amalda qo'llanilsa, o'quvchilarda kitob va kutubxonadan ratsional foydalanish, kitobxonlik madaniyati shakllanganligining samaradorlik darajasi yanada ortadi. Kitobxonlarni mustaqil o'quv ehtiyoji va qobiliyatini shakllantirish – barchaning e'tiborini jalb etadigan muammolardan biri bo'lib, ularni hal etishning ahamiyati barcha uchun shubhasizdir, yechish yo'llarini esa ixtiyoriy savodli inson o'z tajribasidan kelib chiqib taklif etishi mumkindir. Kerakli kitobning mazmuniga mos uni o'qish kitobxonning ongida shubhasiz taassurot, qiziqish uyg'otadi, navbatdagi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi, irodani birorbir yangi maqsadlarga erishishga undaydi, ularni amalga oshirish uchun esa yana umuminsoniy faoliyatning fazoviy-vaqt maydonidan ko'p qirrali ma'lumotlar olami, ya'ni kitoblar olami bilan muloqotga chiqish kerak bo'ladi. Kitob o'qishning foydasi mo'l, barakasi behisob. Avvalo, mutolaa turli-tuman madaniyatlar va bilimlarni o'rganish uchun insonga asosiy ko'priq bo'lib xizmat qiladi. O'qish tilni to'g'rilash, og'zaki nutqni rivojlantirish, so'z boyligini orttirish uchun asosiy manbadir. Kishi kanchalik ko'p mutolaa qilsa, shunchalik ravon va bexato so'zlaydigan bo'ladi, dunyoqarashi kengayadi, madaniy saviyasi o'sadi.

Donolardan biri "Kitoblarni yoqib yuborish og'ir jinoyat, biroq dunyoda undan-da og'irroq jinoyat bor, u – kitob o'qimaslik", degan edi. Agar biz ham shu nuqtai nazardan o'zimizga baho beradigan bo'lsak, natijani bilib olishimiz mumkin. To'g'ri, birovning boshiga nuqib kitob o'qitib bo'lmaydi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga bu boradagi bilimlarni tushuntirish, ularning ongiga yoshligidan kitob ularning kelajakdagi hayotiga qanday ta'sir ko'rsatish muhimligi to'g'risida o'qtirish, albatta, muallimlarning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Kitob o'qish qalb chigalliklarini yozadi, ko'ngilga huzur bag'ishlaydi, jaholatga barham beradi, turli-tuman vasvasalarni kishi ongidan quvib chiqaradi. Kitob hayotning qorong'u yo'llarini yoritib boruvchi chiroqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://yuz.uz/oz/news/mamlakatimizda-kitobxonlik-madaniyatini-rivojlantirish-va-qollab-quvvatlash-milliy-dasturi-qabul-qilinadi>
2. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/aholi_urtasida_kitob_uqishga_qiziqishni_qanday_oshirish_mumkin
3. <https://lex.uz/docs/7997384>